

VIII. XIZMATLAR

2022- yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 7 379,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish 113,5 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2022- yilning yanvar-sentabr oylari uchun)


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>	<i>Jamiga nisbatan %</i>
Xizmatlar – jami	7 379,2	113,5	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	377,4	122,0	5,1
moliyaviy xizmatlar	1564,8	123,2	21,2
transport xizmatlari	1 672,0	110,3	22,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 565,3	107,0	21,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	179,2	114,6	2,4
savdo xizmatlari	1 871,4	107,0	25,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	187,6	107,0	2,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	341,1	110,7	4,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	153,4	113,5	2,1
ijara xizmatlari	143,3	115,6	1,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	302,0	110,7	4,1
shaxsiy xizmatlar	262,1	107,8	3,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	119,4	111,8	1,6
boshqa xizmatlar	205,5	138,1	2,8

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yuqori hajm savdo xizmatlari (1 871,4 mlrd. so'm), transport xizmatlari (1 672,0 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (1 564,8 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (377,4 mlrd. so'm) ga to'g'ri keladi.

Eng kichik hajm, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (119,4 mlrd. so'm), ijara xizmatlari (143,3 mlrd. so'm), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (153,4 mlrd. so'm) ga to'g'ri keladi.


Shuningdek, boshqa xizmatlar (138,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (122,0 %), moliyaviy xizmatlar (123,2 %), ijara xizmatlari (115,6 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (114,6 %), o'sish sur'atlari yuqori bo'ldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2022-yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari – 25,4 % ulush bilan etakchi o'rinni egallaydi. Xozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi xisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (25,4 %), transport xizmatlari (22,7 %), moliyaviy xizmatlar (21,2 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,1 %) to'g'ri keladi.


Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlar sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2,1 %), ijara xizmatlar (1,9 %), shuningdek Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,6 %) ga to'g'ri kelgan.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda viloyatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifati va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 198,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 25,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 203,0 mln. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun)




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 75,3 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,6 % ga etdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 9,1 % ni egallaydi.


Transport xizmatlarining umumiy hajmida quruqlikdagi transport xizmatlari – 94,8 %, omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari – 4,6 %, pochta va kurerlik xizmatlari – 0,6 % ni tashkil etadi.

Transport xizmatlarining tarkibi % da
(2022-yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi,%
(2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun)**

2022-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 377,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,0 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (95,3 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.

Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug'urta tashkilotlariga ko'rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %

(2022-yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Natijada, 2022-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 963,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'sish 117,3 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi 90,3 % ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 6,4 % ni, yordamchi moliyaviy faoliyat 3,3 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 79,8 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 20,2 % ga to'g'ri keladi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %

(2022-yil yanvar-sentabr oylari uchun)



2021- yil yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslanganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatini rivojlantirish xisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiati, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 114,6 % ni tashkil etdi.




Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar birinchi navbatda ong va fikrlashdagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlab, ma'naviyatni yuksaltirishga hissa qo'shadi. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 341,1 mlrd.so'mga teng, o'sish sur'ati esa 110,7 % erishildi.

O'tgan yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslanganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 58,6 mln. so'mga oshdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Xorazm viloyati	7 379,2	113,5	100,0
Urganch shahri	2 632,5	114,7	35,6
Xiva shahri	326,7	116,0	4,4
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	411,5	114,2	5,6
Gurlan	387,1	114,0	5,2
Qo'shko'pir	370,6	114,2	5,0
Urganch	564,8	108,2	7,7
Hazorasp	555,4	110,9	7,5
Tuproqqal'a	175,3	114,8	2,4
Xonqa	499,3	113,7	6,8
Xiva	420,2	113,3	5,7
Shovot	397,8	114,0	5,4
Yangiariq	345,5	113,2	4,7
Yangibozor	292,5	113,7	4,0


Viloyat bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi (2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Xizmatlar sohasining rivojlanishida eng katta ulush Urganch shahri (35,6 %), Urganch (7,7 %), Hazorasp (7,5 %), Xonqa (6,8 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Yangiobzor tumani (4,0 %), Xiva shahri (4,4 %), Tuproqqal'a tumani (2,4 %) egallaydi.


Hududlar bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %
(2022-yil yanvar-sentabr oylari uchun)



2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, 2022-yil yanvar-sentabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahri (114,7 %), Tuproqqal'a tumanida (114,8 %), va Xonqa tumanida (113,7 %) qayd etildi.


Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 633,8 ming so'mga oshib, 3 812,3 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati 111,6 % qayd etildi.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar
(2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog‘liqdir.

Shahar va tumanlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o‘shish sur‘ati



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Urganch shahrida (17 805,1 ming so‘m), Xiva shahrida (3 410,4 ming so‘m), Yangibozor tumani (3 252,2 ming so‘m) va Tuproqqa‘la tumanida (3 074,0 ming so‘m) ga to‘g‘ri keladi.

Hududlar o‘rtasida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng past ko‘rsatkich Qo‘shko‘pir (2 093,7 ming so‘m), Bog‘ot (2 412,7 ming so‘m) va Shovot (2 269,9 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, 2022-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o‘shish sur‘atlari Urganch shahrida (112,8 %) va Xiva shahrida (113,9 %) qayd etildi.